

**Mavzu: Xalq xo'jaligi uchun  
xavfli bo'lgan meteorologik  
hodisalar**

Maruzachi: dots. Karimov S.K

Ass. Is'hakov G'.F

- O'simliklar, xayvonlar va odamlar uchun noqulay meteorologik hodisalar xavfli hodisalar deyiladi. Bularga qora sovuq, qirg'oqchilik, qum bo'roni, do'l, jala, qishdagi qattiq sovuq va boshqalar kiradi. Bu hodisalarni oldini olish yoki salbiy ta'sirini kamaytirish uchun ularni o'rganish lozim.

- **Qora sovuq.** Qora sovuq deb, o'rtacha sutkalik harorat musbat bo'lgan davrda haroratni 0 gacha yoki undan pasayishiga aytiladi. Qora sovuq O'zbekistonni deyarli barcha xududlarida kuzatiladi.
- O'simlikni vegetatsion davrida kuzatilgan qora sovuq xafli hisoblanadi. Ayniqsa bahorgi va kuzgi qora sovuq salbiy oqibatlariga olib kelib, bahorda ko'chatlarni quritishi yoki kuzda hosilni nobud qilishi mumkin

- Qora sovuq uch turi mavjud:
- 1. Advektiv qora sovuq. Bvxor va kuzda arktik sovuq xavoni kelishi tufayli hosil bo'ladi. Bu qora sovuq bir necha kun kun davom etib, katta xududni egallaydi va mahalliy sharoitga deyarli bog'liq bo'lmaydi.
- 2. Radiatsion qora sovuq. Kechalari yer yuzasini yuvishidan kelib chiqadi. Yer yuzasi yoki o'simlik orasida harorat 2 m balandlikdigidan past bo'ladi.

- 3. Advektiv - radiatsion qora sovuq yuqoridagi ikkita hodisani qo'shilishidan hosil bo'ladi. Qora sovuq joyni reliefiga bog'liq bo'lib notekis joylarda ko'proq bo'ladi. Sababi sovuq xavoni kelishi tog'li joylarda ko'proq bo'lib, muddat bilan voxalarga tarqaladi.
- Ekinlarni shikastlaydigan qora sovuq kritik deb ataladi. Qora sovuqqa chidamliligiga qarab ekinlar 5 turga bo'linadi.
- 1. -7-10 qora sovuqni ko'taradigan ekinlar. Bular kuzgi va bahorgi donli, boshhoqli ekinlar. Biroq bu ekinlar ham boshhoq tortish davrida nozikroq bo'lib -3-4 harorat sovuqdan ham shikastlanadi.

- 2. -5-7 qora sovuqni ko'taradigan ekinlar, bu ildiz mevalar, rediska, karam va boshqalar.
- 3. CHiqish payitida -3-4 ni, gullashda -1-2 qora sovuqni ko'taradigan ekinlar bular loviya noxot va boshqalar.
- 4. -2 ni, gullashda -1 qora sovuqni ko'taradigan ekinlar - jo'xori, kartoshka, tamaki va boshqalar.
- 5. Issiq sevar o'simliklar g'o'za, sholi, sabzavot va poliz ekinlari, mevali daraxtlar -0,5-1,5 qora sovuqda shikastlanadilar.
- Qora sovuq O'zbekiston xududida asosan aprel, may va sentyabr - oktyabr oylarida kuzatiladi.